

UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTABLARIDA O'QUVCHILARNI KASB-HUNARGA YO'LLASH TENDENSIYALARI

Xolmatov Pardaboy Qorabekovich¹, Orishev Jamshid Bahodirovich²

Qo'nisheva Gullola Salimjonovna³

¹JVXTXQTMOHM Amaliy fanlar va maktabdan tashqari ta'lim metodikasi kafedrası mudiri, p.f.n.,dots, ²A.Qodiriy nomidagi JDPI, Texnologik ta'lim kafedrası o'qituvchisi, ³Forish tumani 59-IDUMning 1-toifali Texnologiya fani o'qituvchisi, Jizzax, O'zbekiston
e-mail:

Annotatsiya. Ushbu maqolada umumiy o'rta ta'lim maktablarida darsdan tashqari mashg'ulotlar jarayonida o'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirishni takomillashtirishga oid mulohazalar keltirilgan.

Kalit so'zlar: kasb-hunar, to'g'arak rahbarlari, kichik guruhlar, yakka tartibda mustaqil va guruh holida mavzuni o'rganish, o'quvchi o'z qiziqishi, qobiliyat, bilim, amalda tadbir.

Аннотация. В этой статье представлены отзывы о том, как улучшить профориентацию учащихся во внеклассной деятельности в общеобразовательных средних школах.

Ключевые слова: профессия, руководители кружка, малые группы, индивидуальное самостоятельное и групповое изучение темы, собственные интересы студента, способности, знания, применение на практике.

Annotation. This article provides information regarding how to improve the professional orientation of students during the activities that are conducted after the lessons in general secondary school.


Key words: profession, club leaders, small groups, individual and group study of the topic, the student's own interests, abilities, knowledge, and practical application.

Hurmatli Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoevning milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz deb nomlangan asarida fazandlarimiz uchun zamonaviy ish joylari yaratish, ularning hayotda munosib o'rin egallashini ta'minlashga qaratilgan ishlarimizni yangi bosqichga ko'tarishni davrning o'zi taqozo etmoqda. "Biz yoshlarga doir davlat siyosatini hech og'ishmasdan, qat'iyat bilan davom ettiramiz. Nafaqat davom ettiramiz, balki bu siyosatni eng ustivor vazifamiz sifatida bugun zamon talab qilayotgan yuksak darajaga ko'taramiz.

Yoshlarimizning mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektual va ma'naviy salohiyatga ega bo'lib, dunyo miqyosida o'z tengdoshlariga hech qaysi sohada bo'sh kelmaydigan insonlar bo'lib kamol topishi, baxtli bo'lishi uchun davlatimiz va jamiyatimizning bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etamiz deb fikr

bildirdilar[1]. Shu o‘rinda darsdan tashqari ta’lim mazmunini milliy an’analar va qadriyatlarimiz, Respublika hududlari talablari asosida tashkil etib, uning tarmog‘ini kengaytirish, zamon talablari darajasida isloh qilish kun tartibida turgan dolzarb masaladir. Hozirgi kunda yangi pedagogik va axborot texnologiyasi qonuniyatlari asosida pedagog olimlarimiz darsdan tashqari mashg‘ulotlarni tashkil etishning turli shakl va metodlarini ishlab chiqmoqda. Bizning ham bu boradagi tadqiqotlarimizda ta’lim muassasalarining o‘quv-tarbiyaviy ishini rejalashtirish dastur va usulubiy ishlanmalar, metodik qo‘llanmalar, o‘quv adabiyotlari muhim dasturiy asos bo‘lib xizmat qildi. Amalga oshirgan tahliliy tadqiqotlarimiz natijasida mashg‘ulotlar mazmunini texnologik asosda tashkil qilish eng istiqbolli yo‘nalish sifatida qabul qilindi. Ta’lim jarayoni qanday shaklda tashkil etilishidan qat’iy nazar quyidagi 1-shaklda keltirilgan shartlarga javob berishi talab qilinadi.

Ta’lim jarayonini har tomonlama mukammal loyihalashtirish, aniq maqsadlar qo‘yish va ularga kafolatlangan holda erishish, rejalashtirilgan natijalarni amalga oshirish imkonini beruvchi uzviy bog‘langan komponentlar yig‘indisi hisoblanadi. Ushbu qoidadan kelib chiqqan holda har bir kasb-hunarga doir o‘qtiladigan mavzuga keng qomrovli loyiha ishlab chiqildi. Majmuaning tarkibiy loyiha qismiga qo‘shimcha ravishda mavzuga daxldor bo‘lgan barcha axborotlar, kompyuter sayti, tarqatma materiallar, ma’lumotnomalar, manbalar, ulardan foydalanish metodikasi kiritildi.



1- shakl. Ta'lim jarayonini tashkil etish shartlarining umumiy tuzilmasi

O'quvchilarning darsdan tashqari mashg'ulotlari va ularni kasbga yo'naltirish jarayonlarining kasb tanlashga yo'llash texnologiyasi o'quvchi yoshlarni xohishlari, moyilliklari va shakllangan qobiliyatlarga asosan jamiyat va xalq xohajaligining ehtiyojlarini e'tiborga olgan holda ish bilan ta'minlashni optimallashtirishga qaratilgan pedagogik tizim loyihasini amalga oshirish deb tarifladik [2].

O'quvchi kichik guruhlarda yakka tartibda mustaqil va guruh holida mavzuni o'rganadi. O'qituvchi hamkorligida o'zlashtirish darajalari aniqlanadi. Har bir o'quvchi o'z qiziqishi qobiliyati va imkoniyatiga mos o'zlashtirishga erishishi bilan bir qatorda, olgan bilimlarini amalda tadbiq etib boradi.

Ijtimoiy ishlab chiqarish munosabatlarining, jamiyatda mavjud kasblar doirasining kengayib, chuqurlashib hamda murakkablashib borishi o'z-o'zidan shaxsga ta'lim berish, dunyoqarashini shakllantirish, kasb tanlashga yo'llash hamda ishlab chiqarish jarayonidagi faol ishtirokining kafolati bo'lgan kasbiy malakalarini shakllantirish jarayoniga nisbatan yangicha, samarali yondashuvlarni ishlab chiqishga bo'lgan ehtiyojini yuzaga keltiradi. Ma'lumki, ta'lim tizimi jamiyatda shakllangan muayyan ehtiyoj asosidagi ijtimoiy buyurtmani bajarishga yo'naltiriladi.

Bozor munosabatlariga asoslangan ijtimoiy rivojlanish qonuniyatlaridan biri jamiyatning barcha sohalari, jumladan, kasb egallashdagi raqobatning paydo bo'lishidir. Ijtimoiy raqobat bu tahlitda mavjud bo'lishi mo'tadil faoliyat yuritish, raqobatga nisbatan ishchanlik immunitetini hosil qilish, raqobatchilarga nisbatan yuqoriroq mavqe uchun kurashishga zamin yaratadi. Shu bois fuqarolarda ta'lim olish, nazariy va amaliy bilimlarni o'zlashtirish, kasb egallashga nisbatan ongli yondashuv hissi qaror topmoqda. Bu esa ularda jamiyat ehtiyojlari asosida kasb tanlashga bo'lgan rag'batni hosil qilmoqda. Endilikda ta'lim olish, muayyan kasb-hunar yoki mutaxassislik ma'lumotlarini egallash, bu borada ma'lum ko'nikma va malakalarni shakllantirish hayotiy ehtiyojga aylanmoqda. Ta'lim olishga bo'lgan rag'bat va uning mazmuni kasb egallash jarayonining muvaffaqiyatli amalga oshishida kafolat bo'la oladi [5].

Yaqin o'tmishda ta'lim oluvchining ta'lim jarayonidagi ishtiroki nazariy bilimlarni qabul qilib oluvchi va o'zlashtirilgan nazariy bilimlar, amaliy ko'nikmalarni namoyish etuvchi sub'ekt sifatidagi o'rni bilan kifoyalangan bo'lsa, ta'lim texnologiyasi talablariga ko'ra ta'lim oluvchi ta'lim jarayonining yetakchi sub'ekti, asosiy ijrochisi sifatida ko'rinadi. Endilikda ta'lim oluvchi ta'lim beruvchi tomonidan uzatilayotgan axborot (bilim)larni qabul qilmaydi, balki ta'lim beruvchining yo'llanmasi, ko'rsatmasiga muvofiq tavsiya etilgan o'quv manbalari bilan mustaqil ravishda tanishish orqali nazariy bilimlarni o'zlashtiradi, ta'lim beruvchi nazorati ostida amaliy ko'nikma va malakalarni hosil qiladi. Ta'lim

oluvchi mustaqil faoliyat yuritish, nazariy bilimlarni o'zlashtirish asosida o'zida fikrni ilgari surish, dalillar keltirish, o'z fikrini himoya qilish layoqatini tarbiyalay olishi, o'z-o'zini tanqid qilish, o'z-o'zini baholash sifatlarini qaror toptira olishi talab etiladi. Davr talabi ta'lim oluvchini ta'lim jarayonining sust tinglovchisi bo'lishdan faol ishtirokchisiga aylantirishni taqozo etmoqda.

O'quvchining ta'lim jarayonidagi yetakchilik roli quyidagi pedagogik vazifalarni hal etish imkonini beradi:

- o'quvchida bo'lajak kasbi to'g'risidagi bilimlarni va ma'lumotlarni o'zlashtirishga bo'lgan ehtiyojni qaror toptirish;

- kasb tanlashga nisbatan ongli yondashuvni shakllantirish;

- mustaqil faoliyat yuritish ko'nikmalarini shakllantirish;

- o'quvchilarda mustaqil fikr yuritish, nazariy va amaliy bilimlar mohiyatini tahlil etish, ular borasida xulosalar chiqarish, umumlashtirish hamda ularni o'z amaliy faoliyatiga tatbiq etish ko'nikmalarini yuzaga keltirish va takomillashtirish;

- o'z-o'zini nazorat qilish, qiyosiy baholash, tahlil qilish sifatlarini shakllantirish.

O'quvchilarni kasb tanlashga yo'llashda ta'lim shakli, metod va vositalarining ahamiyati katta. Zero, ular o'quvchining imkoniyatlarini yuzaga chiqarish, bilim, ko'nikma va malakalarini bo'lajak faoliyat sohasi talablari asosida shakllantirish uchun shart-sharoit yaratib beradi. O'z navbatida o'quvchilarning yosh, psixologik, fiziologik xususiyatlari, bilim darajasi, dunyoqarashining ko'lami hamda ularning faolligi samarali, ilg'or, noan'anaviy ta'lim shakli, metod va vositalarini tanlash, ulardan maqsadga muvofiq darajada foydalanish uchun turtki bo'ladi. O'quvchi yoshlarning darsdan tashqari mashg'ulotlarda mustaqil kasb-hunar tanlashga qaratilgan faoliyati o'quvchilarning ijodiy xususiyatlari va bosqichlariga mos ravishda tashkil etiladi.

Ilmiy-texnik ijodiyotning asosiy yo'nalishlari esa quyidagilar: texnik modellashtirish; o'quv predmetlari bo'yicha (fizika, kimyo, matematika) to'garaklarda fan asoslarini chuqur egallash; sportning harbiy-texnik mutaxassislari kasblarini tanlash. Ushbu yo'nalishlarni takomillashtirish asosan, olimpiada, ko'rgazma, tanlov, musobaqa va bahslar o'tkazish bilan amalga oshiriladi.

Texnik ijodiyot markazlarida tashkil etilgan elektronika, kosmik modellashtirish to'garagida qatnashib birinchi o'quv yilini tugatgan to'garak a'zolari radioelektronika, radiotexnika to'g'risida boshlang'ich taassurotlarga, oddiy qog'ozdan raketalarni yasashni, raketasozlik va uning kelib chiqishi haqidagi ma'lumotlarni bilishlari shart [4].

Maktabdan tashqari ta'lim muassasalarida rejalashtirilayotgan har bir tadbir mazmunida, to'garaklar faoliyatida – Vatanga muhabbat va komil inson tarbiyasi aks etishi lozim. O'quvchilarda Vatanga muhabbat tuyg'usini tarbiyalashda

yurtimiz madaniyati tarixi, muayyan davrlardagi mavqei, buyuk mutafakkirlarimizning jahon fan va madaniyati sohasidagi o'рни, mamlakatimizning yorqin istiqboliga ishonch to'g'risida ma'lumot beriladi. Vatanni sevish, uning istiqboli haqida qayg'urish iymon-e'tiqod ramzi ekanligi uqtiriladi. O qituvchi va tarbiyachilar darsdan tashqari mashg'ulotlar jarayonida o'quvchilarga quyidagi bilim hamda ko'nikmalarni singdiradilar:

- ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy-axloqiy xislatlar majmui mujassamlashtiriladi;
- jamiyatda o'zligini va o'z iste'dodini har tomonlama namoyon etadi;
- ma'rifiy va dunyoviy bilimlarni mukammal egallaydi;
- ahloqan pok, jismonan sog'lom, hayot go'zalliklarini his eta oladigan erkin ijodkor shaxs darajasiga intiluvchi bo'ladi.

Darsdan tashqari mashg'ulotlar mazmunini belgilashda yana quyidagi tadbirlar ishlab chiqilishi e'tiborga olinadi:

- iqtidorli bolalar va iste'dodli yoshlarni chet ellarda kasbiy jihatdan tayyorgarlikdan o'tkazishga qaratilgan turli tadbirlarni amalga oshirish;

- darsdan tashqari mashg'ulotlar jarayonida yoshlar iste'dodi va iqtidorini namoyon qilishga doir shart-sharoitlar yaratib berish;

- ularning qiziqishini inobatga olgan holda fanlar bo'yicha olimpiadalar, tanlovlar, ko'rgazmalar, turli bayramlar, bolalar ijodkorligi kabi tadbirlarni o'tkazish. Darsdan tashqari mashg'ulotlar jarayonida o'quvchilar ongida iqtisodiy ta'limni singdirish, iqtisodiy savodxonlikni oshirish, iqtisodiy fikrlashga o'rgatish va iqtisodiy madaniyatini shakllantirish muhim o'ringa ega bo'ladi. Mashg'ulotlarda o'quvchilar ongida quyidagi bilimlar, ko'nikma va malakalar shakllantiriladi:

- kasblar turlari va yo'nalishlarini o'rganishga bog'liq bo'lgan iqtisodiy ta'lim bo'yicha bozor iqtisodiyoti, menejment, marketing kabi tushunchalarni bilishi;

- mustaqil faoliyat asosida shaxsning o'z bilimi, ko'nikma va malakalarini namoyon etishi;


- o'quvchining tanlagan sohasi bo'yicha maxsus nazariy va amaliy bilimlar yig'indisini o'zida mujassamlashtirgan kasbiy tayyorgarlik (2-shakl).

Mashg'ulotlar mazmuni quyidagi vazifalarning yechimini topishga qaratiladi:

- xalq hunarmandchiligi sohalaridagi ishlab chiqarish mazmuniga ega vazifalarni yechishi, tajribalar o'tkazishi, o'lchov-tekshiruv, asbob-uskunalaridan to'g'ri foydalanishiga;

- bozor iqtisodiyoti qonuniyatlari, talablari asosida sifatli, xaridorgir, iste'mol mollari va texnologiya mahsulotlarini tayyorlashga odatlanishiga;

- o'zlari tayyorlagan mahsulotlarni o'zlari iste'molchiga yetkazishni o'rganishiga.



1-shakl. Umumiy o'rta ta'lim muassasalarida kasbga yo'naltirishga asoslangan darsdan tashqari mashg'ulotlarning umumiy tizimi

Darsdan tashqari mashg'ulotlarning ikkinchi guruhiga ekskursiyalar, fan olimpiadalari, ko'rgazmalar, o'quvchilar konferentsiyalari, kasbning eng yaxshi ishchisini aniqlash uchun o'tkaziladigan tanlovlar, ishlab chiqarish ilg'orlari bilan bo'ladigan uchrashuvlar kabi tadbirlar kiradi. Bu turdagi mashg'ulotlarning mohiyati va afzalligini belgilab beruvchi jihati ko'plab o'quvchilarni jalb qilish imkoniyatining mavjudligi bo'lib, shu sababli ular tadbirlarning ommaviy shakllari deb yuritiladi. Amalga oshirgan tajriba-sinov ishlarimiz sanab o'tilgan barcha shakldagi mashg'ulotlarning yuksak darajada samarali ekanligini tasdiqladi. Ular o'quvchilarning hozirgi zamon ishlab chiqarish asoslari to'g'risidagi tasavvurini kengaytirish, ularni turli kasblar bilan tanishtirish imkonini beradi [3].

Bu mashg'ulotlarning kamchiligi o'quvchilarni foydali texnologiyaga, bevosita ijodiy faoliyatga jalb qila olmasligi bilan belgilanadi. Shuning uchun o'quvchilar, darsdan tashqari mashg'ulotning mazkur shakli bilan birga, boshqa

to'g'arak ishida ham qatnashsalar maqsadga muvofiq bo'ladi. Ko'pchilik vaziyatlarda bu tavsiyamiz o'z tasdig'ini topmoqda. Jumladan, tashkil etiladigan ko'rgazmalarda to'g'arak a'zolari o'z ishlarini namoyish qiladilar, ya'ni ikki turdagi mashg'ulotlarni uyg'unlashtiradilar.

Kasb tanlash uchun o'quvchi o'z imkoniyatlarini baholay olish ko'nikmasiga, ya'ni qiziqishlariga monand, har xil kasblar bo'yicha bilimga kasblarning imkoniyatlari, kelajagi haqida axborotga ega bo'lishi maqsadga muvofiq. Shaxsda kasbga yo'naltirish maxsus amaliy faoliyat orqali amalga oshiriladi, o'quvchining inson sifatida shakllanish bosqichlarida shaxs va jamiyat yagona bir tizim sifatida qaraladi, o'tish davrida bozor iqtisodiyoti munosabatlari talablari inobatga olinadi.

Shaxs har tomonlama kamol topishi uchun aqliy, jismoniy, ma'naviy, ruhiy jihatdan tarbiyalangan bo'lishi kerak. Shu nuqtai nazardan shaxsning shakllanishiga bir necha omillar ta'sir ko'rsatadi. Ta'limning noan'anaviy shakli sifatida tashkil etiladigan bahs-munozara, davra suhbat, amaliy konferentsiya, seminar va boshqalar muayyan predmetning muhim mavzulari yuzasidan tashkil etilib, o'quvchilarda mustaqil fikrlash, o'z fikrini ilgari surish, uni asoslash hamda himoya qilish qobiliyatini shakllantirish uchun xizmat qiladi. Bu kabi darslarning tashkil etilishida maqsadning aniqligi, shuningdek, o'qituvchilarning faol ishtiroki muhim ahamiyat kasb etadi.

Bundan tashqari ko'rgazma va mo'jizalar maydoni shaklida o'tkazilayotgan darslar bellashuv xususiyatiga ega bo'lib, o'quvchilarni faollikka undaydi.

Kasb tanlashga yo'llashda mashg'ulotlarning muvaffaqiyati uning shakligagina emas, balki qo'llanilayotgan metodlar samaradorligiga ham bog'liqdir. Ta'lim metodlari o'qitishning o'z oldiga qo'ygan maqsadlariga erishish usullarini hamda o'quv materialini nazariy amaliy yo'naltirish yo'llarini anglatadi.

O'qitish metodlari mashg'ulotlar jarayonida o'qituvchi va o'quvchi faoliyatining qanday bo'lishi, o'qitish jarayonini qanday tashkil etish va olib borish kerakligini hamda shu jarayonda o'quvchilar qanday ish-harakatlarni bajarishlari kerakligini belgilab beradi [2].

1. Darsdan tashqari mashg'ulotlar jarayonida o'quvchilarni kasb-hunarga yo'llash samaradorligini oshirishga xizmat qiluvchi shart-sharoitlar va yo'nalishlar asosida mashg'ulotlarni samarali o'tkazish texnologiyasini ishlab chiqish vazifasini amalga oshirish uchun:

- o'quvchilarning darsdan tashqari mashg'ulotlari va ularni kasbga yo'naltirish jarayonlarining samaradorligi va unumdorligini oshiruvchi metod hamda nazariyalarni tahlil qilib, ular orasidan shaxsni kelajakda yetuk va raqobatbardosh kasb egasi sifatida shakllantirish imkonini beruvchi pedagogik texnologiya bosqichlari ishlab chiqish va tizimlashtirish;

- o'quvchilarda kasbga oid tushunchalar hosil qildirish;
- kasbga oid nazariy bilimlar berish;
- olingan bilimlarni amalga tatbiq etish va kasb-hunar haqida o'quvchilarda ko'nikma va malakalar hosil qildirish asosida ularni kasbga yo'llash;
- mashg'ulotlarni tashkil etishning mavjud bo'lganlariga nisbatan afzalroq bo'lgan muqobil metodlar va shakllarini ishlab chiqish imkonini beradigan istiqbolli yo'nalishlar belgilab olindi;
- o'quvchilarning darsdan tashqari mashg'ulotlarini tashkil qilishda guruh shaklidan foydalanganligimiz sababli, **uchinchi navbatda**, jamoani shakllantirish va boshqarish metodlarini, ya'ni jamoa oldidagi umumiy muammoni hal qilish uchun har bir o'quvchining individual fazilat va sifatlarini to'laroq e'tiborga olish imkonini beruvchi mezonlar ishlab chiqish hal qiluvchi ahamiyatga egadir.

2. Darsdan tashqari mashg'ulotlarning umumiy tahlili va mazmunini kasbga yo'naltirish ishlari misolida tasniflash asosida to'garak mashg'ulotlari, ommaviy shakldagi darsdan tashqari mashg'ulotlar jarayonida o'quvchilarni kasb-hunarga yo'llash ishlari takomillashtirilishi maqsadga muvofiqdir.

3. Darsdan tashqari mashg'ulotlar uchun ishlab chiqilgan dasturlarni amalga oshirish murakkab pedagogik-psixologik hamda tashkiliy jarayonlarni amalga oshirishda o'quvchilar qabul qilishi lozim bo'lgan barcha axborotlar oqimini guruhlar bo'yicha tizimlashtirish, bu vazifalarni amalga oshirishda shaxsni shakllantirishga ta'sir etuvchi omillar aniqlash hamda amaliy tajriba va ekskursiya mashg'ulotlarini tashkil qilish yo'nalishlari hamda metodlarini ishlab chiqish o'quvchilarni kasb-hunarga yo'llashni muhim omillari hisoblanadi.

O'quvchilarni kasb tanlashga yo'llashda o'qitishning pedagogik texnologiyalaridan foydalanish xususiyatlari mazmun-mohiyati tahlili asosida darsdan tashqari mashg'ulotlarni tashkil qilish maqsad va vazifalari, o'quvchi kasbiy sifatlarini dastlabki pedagogik-psixologik tashxis qilish, kasblar to'g'risida axborot berish, o'quvchi shaxsini ijtimoiy-kasbiy yo'naltirish, kasbiy maslahatlar, kasbiy-iqtisodiy tarbiya metodlarini qo'llash yo'llari ko'rsatib beriladi.

Kasbga yo'naltirish ishlari tizimli ravishda, izchil takomillashtirib borilgandagina o'quvchining kelajakda mukammal kasb egasi bo'lishiga erishiladi. O'quvchilarni kasb tanlashga yo'llashning ishlab chiqilgan texnologiyasi hamda to'garaklar o'quv dasturlarini amaliyotga tatbiq etishning eng samarali yechimi sifatida kasb-hunarga yo'llash ishlarini tashkil qilishda darsdan tashqari mashg'ulotlar mazmunini tanlashning tashkiliy-pedagogik mezonlari ishlab chiqildi.

Ushbu mezonlarda o'quvchiga tushuncha berilayotgan kasblarning turlari va nomlari bo'yicha real mavjud kasblarning miqdoriga nisbatan optimal munosabatni saqlash, kasb tanlash ishida mahalliy va mintaqaviy ehtiyojlar asosida kasbga

yoʻnaltirishning ustuvorligi, boʻlajak kasb turi bilan bogʻliq faoliyatning mazmuni va tuzilmasini asoslash, oʻquvchining oʻzi yoʻnaltirilayotgan kasblar obʻektlarining xususiyatlari toʻgʻrisida maʼlumotga ega boʻlishligi kabi holatlar oʻz aksini topgan.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, ilmiy-pedagogik tadqiqotlar hamda amalga oshirilgan tajriba-sinov ishlarimiz oʻquvchilarni kasb-hunarga yoʻllash, darsdan tashqari mashgʻulotlarda ularning kasblarga oid bilim va koʻnikmalarini shakllantirishdan iborat jarayonni qamrab oldi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yoʻlimizni qatʼiyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga koʻtaramiz. Toshkent. Oʻzbekiston, 2018. -145 b.

2. Xolmatov P. va bosh. Darsdan tashqari mashgʻulotlar jarayonida oʻquvchilarni kasb-hunarga yoʻnaltirishni takomillashtirish metodikasi. Metodik qoʻllanma Nodirabegim. 2021 y.

3. Xolmatov P.Q., Negmatov O. Texnologiya fanini oʻqitishda zamonaviy yondashuvlar. 3.1.modul. Majmua. JVPXQTMOHM. 2021.

4. Xolmatov P.Q., Negmatov O. Xorijiy tajribalardan foydalanish va innovatsion texnologiyalar. 3.2.modul. Majmua. JVPXQTMOHM. 2021.

5. Xolmatov P. Oʻquvchilarni kasb-hunarga yoʻnaltirish. Monografiya. Fan. 2016 y.

6. Ismailov T.J, Tagaev X, Kholmatov P.K, Yusupov K.Y, Alkarov K.Kh, Orishev Zh.B Karimov O.O. (2020). Cognitive-Psychological Diagram Of Processes Of Scientific And Technical Creativity Of Students. *International Journal of Advanced Science and Technology*, 29(08), 3669-3677.

7. Orishev, Jamshid (2021) "Project for training professional skills for future teachers of technological education," *Mental Enlightenment Scientific-Methodological Journal*: Vol. 2021 : Iss. 2 , Article 16.

8. Orishev, J. (2020). Глобаллашув даврида педагогик масъулияти . *Научно-просветительский журнал "Наставник"*, 1(1).

9. Xolmatov, P., & Оришев, Ж. (2020). Дарсдан ташқари машғулотларда ўқувчилар касбий тарбиясини шакллантиришнинг мақсад ва вазифалари. *Физико-технологического образование*, 1(1)

10. Xolmatov, P., & Оришев, Ж. (2020). Умумий ўрта таълим мактабларида ўқувчиларни касб-хунарга йўналтиришни такомиллаштириш технологияси. *Физико-технологического образование*, 1(1)

11. Алибоев, Т., Оришев, Ж., & Орипова, Ф. (2016). Развитие техническое творчества студентов на уроках. In *Современные тенденции развития аграрного комплекса* (pp. 1681-1683).

12. Оришев, Ж. Б. (2019). Олий таълим муассасаларида инновацион таълим технологияларидан фойдаланишнинг имкониятлари. *Интернаука*, (43-2), 70-72

13. Убайдуллаев, С., Оришев, Ж. Б., & Ортикова, О. Ш. (2019). Узлуксиз таълимда" дарсларда экологик танаффус" педагогик технологиясига асосланган электрон қўлланмаларни жорий этиш. *интернаука*, (20-3), 62-63.

14. Низомов, Ш., & Оришев, Ж. Б. (2020). Металларнинг хоссалари мавзусини ўқитишда янги педагогик технологиялардан фойдаланиш. *Научное знание современности*, (2), 48-52.

15. Тагаев, Х., Убайдуллаев, С., Алкаров, К. Х., & Оришев, Ж. Б. (2016). Повышение патентных знаний в процессе обучения. In *Современные тенденции развития аграрного комплекса* (pp. 1776-1780).